

# Journal of Natural Science

*No1 (6)  
2022*

<http://natscience.jspi.uz>



<u>ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ</u>	<u>ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u>
<p><b>Бош муҳаррир –</b> У.О.Худанов т.ф.н., доц.</p> <p><b>Бош муҳаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова,</b> PhD, доц.</p> <p><b>Масъул котиб-</b> Д.К.Мурадова</p>	<ol style="list-style-type: none"><li>1. Худанов У.О. – ЖДПИ Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц.</li><li>2. Шилова О.А.-д.х.н., профессор Института химии силикатов им. И.В. Гребенщикова Российской академии наук (ИХС РАН)</li><li>3. Маркевич М.И.-ф.ф.д. проф Белорусия ФА</li><li>4. Elbert de Josselin de Jong- профессор, Niderlandiya</li><li>5. Кодиров Т- ТТЕСИ к.ф.д, профессор</li><li>6. Абдурахмонов Э – СамДУ к.ф.д., профессор</li><li>7. Насимов А– СамДУ к.ф.д., профессор</li><li>8. Сманова З.А,-ЎзМУ к.ф.д., профессор</li><li>9. Султонов М-ЖДПИ к.ф.д,доц</li><li>10. Яхшиева З- ЖДПИ к.ф.д, проф.в.б.</li><li>11. Рахмонкулов У- ЖДПИ б.ф.д., проф.</li><li>12. Мавлонов Х- ЖДПИ б.ф.д., проф</li><li>13. Муродов К-СамДУ к.ф.н., доц.</li><li>14. Абдурахмонов Ғ- ЎзМУ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц</li><li>15. Хакимов К – ЖДПИ г.ф.н., доц.</li><li>16. Азимова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология бўйича) (PhD), доц</li><li>17. Юнусова Зебо – ЖДПИ к.ф.н., доц.</li><li>18. Гудалов М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD)</li><li>19. Мухаммедов О- ЖДПИ г.ф.н., доц</li><li>20. Хамраева Н- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD)</li><li>21. Рашидова К- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц</li><li>22. Муминова Н-к.ф.н., доц</li><li>23. Мурадова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц</li><li>24. Инатова М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD)</li></ol>
<p><b>Муассис-Жиззах давлат педагогика институти</b></p>	
<p>Журнал 4 марта чиқарилади (ҳар чоракда)</p>	
<p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p>	
<p>Журналдан кўчириб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p>	

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Science-электрон журнали

[/http://www.natscience.jspi.uz](http://www.natscience.jspi.uz)

**BOTANIK OLIMNING ILMIY PEDAGOGIK FAOLIYATIGA  
BIR NAZAR**

*Avalboyev Olimjon Narkuziyevich, Yunusova Dildora Norboyevna,  
Mamirova Xurshida To'lqin qizi*

**Jizzax davlat pedagogika instituti**

[avalbayev7788@mail.com](mailto:avalbayev7788@mail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada botanik olim, professor Umarqul Rahmonqulovning ilmiy pedagogik faoliyati haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о научно-педагогической деятельности ботаника, профессор Умаркула Рахмонкулова.

**Annotation:** This article provides information about the scientific and pedagogical activities of botanist, prof. Umarkul Rahmonkulov.

Umarqul Rahmonqulov 1939 yil 21 mart kuni Jizzax shahrida tug'ilgan.

U 1959 yil Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutiga o'qishga kirib, 1964 yil imtiyozli diplom bilan tugallagan. 1964 yildan Jizzax shahridagi maktabda biologiya fani o'qituvchisi vazifasida ishlagan.

1965-1982 yillar davomida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'simlik moddalari kimyosi institutida katta ilmiy xodim lavozimida faoliyat olib borib, ilmiy izlanishlar natijasida oqquray o'simligining dorivorlik xususiyatlari va biologiyasi bo'yicha 1971 yili nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi va oqquray o'simligining biologik xususiyatlari va tabiiy zahiralari haqida monografiyasi e'lon qilindi.

1982 yildan Jizzax davlat pedagogika institutida katta o'qituvchisi, 1986 yildan kafedra dotsenti, 1988 yildan sirtqi bo'lim dekani lavozimlarida xizmat qildi.

1995-1999 yillar davomida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika ilmiy ishlab chiqarish markazining "O'simliklarni muhofaza qilish" laboratoriyasi mudiri lavozimida faoliyat olib bordi. Ilmiy ishlarining yakuni sifatida 1999 yil "G'arbiy Tiyonshonning terpenoid saqllovchi o'simliklari" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

Umarqul Rahmonqulov O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi mintaqaviy oliy o'quv yurtlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori" ga asosan (1995 yil 31 may) ko'chirish yo'li bilan 2000 yilda Jizzax davlat pedagogika institutiga ishga keldi, 2000 yil institut professori, 2004-2012 yillar davomida "Inson hayotiy faoliyati muhofazasi" kafedrasini mudiri vazifasida, 2013 yildan hozirgi kungacha Biologiya va uni o'qitish metodikasi kafedrasini professori lavozimida ishlab kelmoqda.



Ustoz o'rindoshlik asosida 2003-2012 yillar davomida Zomin davlat qo'riqxonasida ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari vazifasida, Qo'riqxonalar, milliy tabiiy bog'lar va ovchilik xo'jaligi boshqarmasi ilmiy-texnik kengash a'zosi sifatida viloyatimizda ekologiya va tabiatni muhofaza qilish ishlarini olib borishda o'z hissasini qo'shib, 30 dan ziyod bakalavriat talabalarining malakaviy bitiruv ishlariga, magistr talabalarining dissertatsiyalariga rahbarlik qildi. Hozirgi kungacha qo'riqxonaning florasini, faunasini va tabiati haqida 100 dan ziyod tezis va ilmiy maqolalari xorijiy va Respublika jurnallarida nashr qilinib, 10 dan ziyod al'bom, 15 dan ziyod buklet va 2 ta risola tayyorlandi, Respublika va viloyat teleradiokompaniyasida 15 dan chiqishlar, 20 dan ziyod Respublika va viloyat gazetalarida maqola e'lon qilindi.

Respublikada Ekoharakat tashkil etilgan kunlardan boshlab harakatning faol a'zosi sifatida u viloyatdagi ekologik muammolar va ularni echimi haqida uzluksiz chiqishlar qilib turdi.

Shuningdek, Umarqul Rahmonqulov Jizzax shahar Uchariq mahallasining faollaridan hisoblanadi. 2009-2013 yillarda fuqarolar yig'inini tashkil qilish va o'tkazish bo'yicha hayat raisi sifatida ishtirok etib, mahallada obro'li, tajribali xodimlardan iborat jamoa tashkil etib, 2 marta Respublika tanlov g'olibligini qo'lga kiritdi.

U Jizzax davlat pedagogika institutining ilmiy kengashi a’zosi sifatida faol ishtirok etib kelmoqda.

Ustozning ilmiy rahbarligida besh nafar – Meliboyev Sobirjon, Qarshiboyeva Nasiba, Mamaraximov Oybek, Avalboyev Olimjon, Halqo’ziyeva Mohira fan nomzodi, biologiya fanlari doktori (PhD) va dotsentlik dissertatsiya ishlariga ilmiy rahbarlik qilgan.

2012 yil professor Umarqul Rahmonqulov rahbarligida Dadayeva Gulchehra va Usmonjonova Hulkar tomonidan “Global iqlim o’zgarishiga moslanish” bo’yicha “Eng yaxshi g’oya-2012” Respublika tanlovida “Eng yaxshi loyiha” nominatsiyasida 3-o’rinni egallab, diplom bilan taqdirlandi.

Ustozning shogirdi Jizzax shahar Sayiljoyi akademik litseyining 2-bosqich talabasi Shodiyabegim “Kelajak ovozi” ko’rik tanlovining respublika bosqichida II-Ekojurnalistika milliy tanlovida ekologiya yo’nalishi bo’yicha tahliliy maqolalar nominatsiyasida g’olib bo’ldi.

Ustoz biologiya mutaxassisligi magistratura talabalariga Biologiyaning dolzarb muammolari, O’simliklar resursshunosligi, “Atrof-muhit muhofazasi kabi fanlardan yangi pedagogik texnologiyalarni qo’llab qiziqarli darslar o’tib kelmoqda. Shuningdek, “Dorivor o’simliklar haqida afsonalar, rivoyatlar va hikoyatlar” (2005), “Shifobaxsh o’simliklar” (2013), “Ekologiyadan laboratoriya mashg’ulotlar” (2005), “Dala amaliyotidan qo’llanma” (2013), “O’simliklar resursshunosligidan ruscha-o’bekcha lug’at” (2000) kabi o’quv va uslubiy qo’llanmalar yaratib, ulardan biologiya fani darslarida foydalanib kelmoqda.

Biologiya fanlari doktori, professor Umarqul Rahmonqulov tomonidan 5 ta monografiya, 4 ta uslubiy qo’llanma, 200 dan ziyod ilmiy maqolalar nashr qilinib, 2 ta mualliflik guvohnomasiga ega.

Professor Umarqul Rahmonqulov O’zbekiston Respublikasi Oliy majlisi huzuridagi nodavlat va notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo’llab quvvatlash Jamoat fondi tomonidan viloyatimizning iqtisodiy samaradorligini oshirish maqsadida 3 ta amaliy, fundamental va innovatsion davlat loyihalarini amalga oshirishda rahbarlik qildi. Shuningdek, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 20 martdagi PQ-3617-son “Respublikada kovrak plantatsiyalarini tashkil etish va ularning xom ashyosini qayta ishlash, hajmlarini ko’paytirish hamda eksport qilish chora tadbirlari to’g’risida” qarorini amalga oshirish maqsadida kovrak o’simligini Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand va Navoiy viloyatlarida kovrak o’simligining plantatsiyalarini yaratish borasida muhim ishlarni amalga oshirdi.

Oilali, 5 nafar farzandlarining hammasi oliy ma’lumotli. O’ndan ortiq nevara, 5 nafar evaralarni tarbiyalab voyaga etkazmoqda.

Ustoz, biologiya fanlari doktori, professor Umarqul Rahmonqulovni 83 yoshga to'lganligi munosabati bilan muborakbod etib, uzoq-umr, sihat-salomatlik, ilmiy va pedagoglik ishlariga rivoj tilab qolamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Xudanov U.O. Bir fakultet tarixi. Jizzax davlat pedagogika instituti. Jizzax. 2021.
2. Ўзбекистон биохилма-хиллиги, уни сақлашда ўсимлик ва ҳайвонот дунёсининг роли // Республикаси илмий амалий конференцияси. Жиззах. 2019.